



**“Orient Finans” XATBda  
jismoniy shaxslarning shaxsga doir ma’lumotlarini qayta ishlash  
QOIDALARI**

**1. Umumiy qoidalar**

- 1.1. Ushbu qoidalar “Orient Finans” XATBda (keyingi o‘rinlarda “Bank”) jismoniy shaxslarning (keyingi o‘rinlarda “Mijozlar”) shaxsga doir ma’lumotlarini to‘plash, saqlash, qayta ishlash va himoya qilish tartibini belgilaydi.
- 1.2. Bank O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq mijozlarning shaxsga doir ma’lumotlarini maxfiylikini ta’minlaydi va ularni himoya qilish bo‘yicha barcha zarur choralarni ko‘rish majburiyatini oladi.

**2. Shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash maqsadlari**

- Bank mijozlarning shaxsga doir ma’lumotlarini quyidagi maqsadlarda to‘playdi va qayta ishlaydi:
- Shartnomalar tuzishda va bank xizmatlarini ko‘rsatishda mijozni identifikatsiya qilish;
  - Kreditlarni tekshirish va risklarni baholash;
  - Tuzilgan shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarni bajarish;
  - Bank operatsiyalarining xavfsizligini ta’minlash;
  - Mijozni Bank mahsulotlari va xizmatlari haqida xabardor qilish;
  - Xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish uchun mijozlar bazasini tahlil qilish;
  - O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi.

**3. Qayta ishlanadigan shaxsga doir ma’lumotlar toifalari**

- Bank mijozlarning quyidagi shaxsga doir ma’lumotlarini qayta ishlashi mumkin:
- Identifikatsiya ma’lumotlari (F.I.Sh., tug‘ilgan sanasi, tug‘ilgan joyi, fuqaroligi, shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma’lumotlari);
  - Aloqa ma’lumotlari (manzil, telefon, elektron pochta);
  - Moliyaviy axborotlar (daromad, xarajatlar, to‘lov tarixi);
  - Biometrik ma’lumotlar (barmoq izlari, imzo namunalari va boshqalar.);
  - Oilaviy ahvol, ta’lim, bandlik to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
  - Mijoz oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma’lumotlar.

**4. Mijoz huquqlari**

- Mijoz quyidagi huquqlarga ega:
- Bank tomonidan qanday shaxsga doir ma’lumotlar ko‘rib chiqilayotgani haqida ma’lumot olish;
  - To‘liq bo‘lmagan, ishonchsiz yoki noqonuniy olingan shaxsga doir ma’lumotlarni aniqlashtirish, blokirovka qilish yoki yo‘q qilishni talab qilish;
  - Shaxsga doir ma’lumotlarni qayta ishlashga roziligini bekor qilish (agar Mijoz, Bank bilan shartnomaviy munosabatda bo‘lsa ushbu huquqdan foydalana olmaydi).

**5. Xavfsizlik choralari**

- Bank shaxsga doir ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash uchun quyidagi choralarni ko‘radi:
- Antivirus dasturlari, Firewall va tizimga kirishni aniqlash tizimlarini o‘z ichiga olgan ishonchli axborotni himoya qilish tizimlaridan foydalanish;
  - Dasturiy ta’minot va antivirus ma’lumotlar bazalarini muntazam yangilab borish;
  - Xodimlarni shaxsga doir ma’lumotlar bilan ishlash qoidalari bo‘yicha o‘qitish;
  - Muntazam xavfsizlik tekshiruvlarini o‘tkazish;



— Shaxsga doir ma'lumotlarni xavfsiz axborot tizimida saqlash.

**6. Shaxsga doir ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga o'tkazish**

Bank shaxsga doir ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga faqat quyidagi hollarda taqdim qilishi mumkin:

- Mijoz roziligiga asosan (agar tasdiqlovchi hujjat majud bo'lsa);
- Agar sud, huquqni muhofaza qilish organlari, notarial idoralar yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida vakolat berilgan boshqa davlat organlarining talablariga asosan;
- Mijoz oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun;
- To'lovlar va pul o'tkazmalarini amalga oshirish uchun.

**7. Shaxsga doir ma'lumotlarni saqlash**

Shaxsga doir ma'lumotlarni saqlash muddati O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va bankning ichki hujjatlariga muvofiq amalga saqlanadi. Saqlash muddati tugagandan so'ng, shaxsga doir ma'lumotlar xavfsiz tarzda yo'q qilinadi.

**8. Qoidalardagi o'zgarishlar**

Bank ushbu qoidalarga o'zgartirish kiritish huquqiga ega. Qoidalarning amaldagi versiyasi bankning rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.

**9. Mijozning roziligi**

Mijoz ushbu qoidalar bilan tanishganligini Shartnoma/Arizaga imzo qo'yish orqali tasdiqlaydi va ularga muvofiq shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlashga rozilik beradi.